

TARIX VA JAMIYAT

HISTORY AND SOCIETY
ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО
общественный электронный
ЖУРНАЛ

JOURNAL
2022

№3

Bosh muharrir:
Pardayev A.H. JDPI, tarix fakulteti dekani, t.f.n. dosent.

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Aqchayev F.Sh. JDPI, tarix fakulteti, t.f.b.f.d. (PhD), dosent.

Mas’ul kotiblar:
Saidov J.O. JDPI, Tarix fakulteti o‘qituvchisi
Xo‘janova M. JDPI, Tarix fakulteti o‘qituvchisi

Tahririyat a’zolari:

- 1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik,**
- 2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor,**
- 3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor,**
- 4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 5. Choriyev S. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 7. Pardayev M.H. – tarix fanlari doktori, dosent,**
- 8. G‘oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dosent,**
- 9. Yarmatov R. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dosent,**
- 10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dosent,**
- 11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dosent,**
- 12. Toshboyev F.E. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dosent,**
- 13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dosent,**
- 14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dosent,**
- 15. G‘ofurov J. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dosent,**
- 16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dosent**
- 17. Valiyev A.X. – katta o‘qituvchi,**
- 18. Majidov A.S. – katta o‘qituvchi,**
- 19. Karimova N. – o‘qituvchi,**

Тарих ва Жамият илмий журнали
QADIMGI XALQ O‘YINLARI V ULARNING TRANSFORMATSIYASI
HAQIDA

Shaxriyor Eshboyev - JDPI,

Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va
metodikasi mutaxassisligi I bosqich magistranti

Anotatsiya: Ushbu maqolada xalqimizda qadimdan mavjud bo‘lgan xalq o‘yinlari to‘g’risida turli manbalarda keltirilgan ma’lumotlar asosida yoshlarimizning barkamol avlod bo‘lib voyaga yetishi uchun zarur mashg’ulot ekanligi va uning transformatsion jarayonlari haqida tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: Xalq o‘yinlari, Mahmud Qoshg‘ariy, “Qarag‘oni”, Ibn Havqal, turklar, arab xalifaligi, “Oltin qobiq”, Ustrushona.

Xalqimiz turli xil xalq o‘yinlari va marosimlariga juda boy xalqlardan biri bo‘lgan va bu sohada nihoyatda yuksalgan san’at tarixiga ega. Ular qatoriga xalqimizning ming yillardan buyon milliy qadriyatiga aylanib ketgan xalq o‘yinlarini ham kiritish mumkin.

Xuddi shunday qorong‘ida o‘ynaladigan bir o‘yinni Mahmud Qoshg‘ariy “qarag‘oni” yoki “qora ko‘rdim ” deb ataydi (Qoshg‘ariy, 1963. 261-b.). Bu o‘yin ham qadimiy ildizga ega bo‘lib, hozirgi kunda qadar saqlanib qolgan. Ushbu o‘yinda yig‘ilgan bolalar o‘rtasida 33 ga qadar sanoq o‘tkazilib, qaysi bola 33 raqamiga to‘g‘ri kelsa, shu ishtirokchidan qolgan o‘yinchilar yashiringan. Qaramasdan joyida turgan bola esa boshqalarni izlab topishi kerak bo‘lgan. Bu o‘yin boshi (33 raqamiga to‘g‘ri kelgan ishtirokchi) tomonidan ma’lum bir sanoq o‘tkazilgungu qadar ishtirokchilar yashirinishiga ulgurishlari shart. Faqat o‘yin kechasi o‘ynalishi va sheriklarini izlaydigan bola yashiringan o‘yinchini ko‘rganda “Qora ko‘rdim” (ishtirokchi ismiga qo‘sib) aytimini aytishi bilan bu o‘yin bekinmachoqdan farqlanadi. Nazarimizda, “Qora ko‘rdim” o‘yini Maximud Qoshqariy asarida keltirilgan “Qoraguni” bugungi kunda saqlanib qolgan shakli bo‘lishi kerak.

Yurtimizdan chiqqan o‘g‘lonlarning jismoniy toblangan, mohir va sodiq jangchi, dovyurak va mard kishilar bo‘lishida bunday o‘yinlarning o‘rni katta bo‘lgan. Ajdodlarimizning mohir jangchilar bo‘lganligini sharq olamining asosiy hududlarini egallagan arab xalifalari ham yaxshi bilishgan. Shuning uchun turkiy xalqlar arab manbalarida islom uchun asosiy xavf va shu bilan birga qahramon xalq sifatida e’tirof etilgan. X asrda yashab ijod qilgan arab tarixchisi Abulqosim Muhammad ibn Havqalning yozishicha: “...ash- Shosh va Farg‘onada (jangovar) tayyorgarlik va qurol aslaha shunday (darajada)ki, bugungi kundagi boshqa biror (Arab xalifaligidagi) chegara mamlakatda unga o‘xshash emas... Ularga Banu-l-Abbos oilasidan bo‘lgan xalifalar ham tan bergenlar va Mavarounnahr aholisidan askarlarini o‘zlarining xizmatiga taklif qilganlar. Turk askarlarining (fazilatlari)

Тарих ва Жамият илмий журнали

afzal bo‘lganligi tufayli ular barcha qo‘sishnlarga boshchilik qilgan, ularning dehqonlari esa ularga amir yetib tayinlangan, deb yozadi” (Ibn Havqal, 2011. B. 21).

Qadimgi ajdodlarimizning bosqinchi qabilalar hujumini qaytarib, o’zlarini himoya qilishlari uchun jangu jadal sirlarini talab qilinardi. Shuning uchun qilichbozlik, nayzabozlik, o‘q otish – tirandozlik sirlarini o‘zlashtirish maqsadida turli tuman jangavor o‘yinlari ham o‘ylab topganlar. Tirandozlik o‘yini avvaldan hozirlab qo‘yilgan maxsus joyda o‘tkazilgan. Otish mashqlari uchun muljallangan joy qadimgi turkiylar tilida “amachlik yer” deb atalgan.

Merganlikka qiziqadigan yigitlar o‘q – yoyslarini olib o’sha maydonga yetib borishgan. O‘q otiladigan joydan nishongacha bo‘lgan masofa “o‘ktam”, ya’ni “bir o‘q otarli masofadagi yer”, nishon esa qadimgi turkiylar tilida “mach” deyilgan (Qoshg‘ariy, 1963.86-b.). Komondan o‘q otish musobaqasi, dastavval, yoshlarning jangavorlik xususiyatlarni qaror toptirish maqsadida o‘tkazilgan. Yurtimizdan chiqqan o‘g‘lonlarning jismoniy toblangan, mohir va sodiq jangchi, dovyurak va mard kishilar ekanligi qadimdan olamga mashhur bo‘lgan. Keyinchalik ana shu muhim hayotiy ahalyatga ega bo‘lgan harbiy o‘yin mashqlaridan biri “oltin kubok” o‘yini qoidasiga ko‘ra 5-6 metrlik yog‘ochlardan to‘rttasini bir-biriga ulab bog‘lanadi. Ana shu tarzda hosil bo‘lgan uzun yog‘ochning uchiga qo‘y oshig‘i yoki tanga pulni osib yog‘ochni tikka qilib o‘rnatganlar.

Kamon o‘qi bilan ana shu yog‘och uchiga osilgan oshiq yoki tanga, yani “Oltin qobiq” ni urgan mergan maxsus sovrin egasi bo‘lgan. (Qilichev, 1989. 92-94-b.) “Oltin qobiq” otish O‘rta Osiyo xalqlarining to‘y marosimlarida o‘ynaladigan a’nnaviy o‘yinlardan biri bo‘lgan (Sagitov, 1963. 346-b.). Yurtimizda o‘rganilgan arxeologik yodgorliklarda xalqimizning qadimgi harbiy qurollari va jang san’ati haqida ma’lumot beruvchi ko‘plab manbalar o‘rganilgan. Ustrushonadagi ba’zi qabrlarda marhumlar “to‘liq qurollangan holda” yoniga qilich, xanjar, kamon o‘qlari – umuman tirikligida ishlatgan jang qurollari qo‘yilib, marhumga ulug‘ hurmat ko‘rsatilib dafn etilgan. Mozorqo‘rg‘onlarda qayd qilingan bu materiallar ularining suyagi janglarda qotganligi va harbiy san’at sir-asrorlarini puxta egallagan mohir jangchilar bo‘lganligini ko‘rsatadi. Umuman ajdodlarimiz o‘zining harbiy mahorati, jangovarligi va sodiq jangchi ekanligi bilan olamga mashhur bo‘lgan. Bunda turli xildagi xalq o‘yinlari natijasida jismoniy chiniqqanlik ham asosiy rol o‘ynagan.

Ajdodlarimiz orasida keng tarqalgan milliy o‘yinlarning ko‘pi ot sporti bilan ham bog‘liq bo‘lgan. Ular ot sportining nihoyatda ustasi bo‘lib, o‘ta epchil, chaqqon, otgan yoyi xato ketmaydigan sportchi – chavandoz, bahodir jangchi bo‘lishgan. Ularning asosiy vaqtı ot ustida o‘tgan. Buning uchun ularning kiyim boshi shunga mos – ya’ni, aytish mumkinki, sport formasida bo‘lishi lozim bo‘lgan. Turkiy xalqlarning kiyim boshi, issiq va sovuqqa mosligi, tog‘u- toshda yurish, otda chopish va hamda himoyalanish uchun juda qulayligi tarixiy yozma manbalarda ko‘p

Тарих ва Жамият илмий журнали

yoritilgan. Qo'shni davlatlar aholisi jang kiyimlarining aksariyati ulardan andoza olib yasatgan. "Mil. avv. IV asrda yunonlar ta'qibi natijasida saklarning bir guruhi sharqqa – Xitoy chegara atroflarigacha ko'chib kelgan. Ayni paytdagi Chjou hukmdorligining boshqaruvchisi Ulin (mil. avv. gi 325-298 yillar) ushbu g'uz (hu)lar (dashtdagi ko'plab xalqlarni xitoyliklar shunday atashgan) kiyimi ot minishga va o'q yoy otishga qulay ekanligini anglab, odamlarining ko'rsatgan qattiq qarshiligiga qaramay, ularni g'uz (hu)lardek kiyinishga da'vat etgan". (Xo'jayev, 2013. B.13) Arrian, skiflar uchun bebaho terilar va undan tayyorlangan turli xil buyumlar oltin va kumush darajasida qadrlangani, hayvonlarning mayin junlaridan qahraton qishlarni ham pisand qilmaydigan o'tovlar yasalgani, hatto hayvonlar terisidan o'q o'tmaydigan qalqon, egar jabduqlar tayyorlanganini ta'kidlaydi. (Arrian, 1962, B. 133) Echki va tuyaning juni hamda, ot dumি va yollaridan eng pishiq arqonlar to'qilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Vatanimiz mustaqilligi yillarda buyuk tariximiz, milliy madaniy merosimiz, azaliy qadriyatlarimiz tiklandi. Aytish mumkinki xalqimiz turli xil xalq o'yinlari va marosimlariga juda boy xalqlardan biri bo'lgan va bu sohada nihoyatda yuksalgan san'at tarixiga ega. Ular qatoriga xalqimizning ming yillardan buyon milliy qadriyatiga aylanib ketgan xalq o'yinlarini ham kiritish mumkin. Mustaqillik yillarda ular yanada keng targ'ib qilinmoqda va o'rganilmoqda bu shubhasiz, jamiyat ma'naviy hayotiga, yoshlar barkamolligiga o'zining ijobjiy ta'sirini ko'rsatadi. Xalqimizning ming yillardan buyon milliy qadriyatiga aylanib ketgan xalq o'yinlari – milliy sport turlari jamiyat ma'naviy hayotiga, yoshlar barkamolligiga o'zining ijobjiy ta'sirini ko'rsatadi.

Adabiyotlar:

1. Arrian. Aleksandrning yurishlari. – M. –L., Izd-vo AN, 1962.
2. Jahongirov G'. O'zbek bolalar folklori. Toshkent. "O'qituvchi", 1978.
3. Ibn Havqal. Kitob surat al –ard (Arab tilidan tarjima va izohlar muallifi Sh.S. Kamoliddin). Toshent: "Uzbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2011.
4. Mahmud Qoshg'ariy. "Devoni lug'ati turk". T.I- Toshkent, 1963.
5. Sagitov I.T. Qoraqalpoq xalq qahramonlaribeposi. Nukus, 1963.
6. Toshboev F.E. Ustrushona xalqlarining harbiy qurollari haqida dastlabki mulohazalar.// O'zbekiston arxeologiyasi, Toshkent: Fan, 2013. № 7.
7. Xo'jaev A. Farg'ona tarixiga oid ma'lumotlar Farg'ona 2013.
8. Qilichev T. Xorazm xalq teatri - Toshkent, 1989.